
“Oilalarda sogʻlom turmushni shakllantirish, aholi va yoshlar oʻrtasida tibbiy madaniyatni oshirish” mavzusida davra suhbat tashkil etildi

Samarqand davlat chet tillari instituti akademik litseyi 1-2-bosqich oʻquvchilari uchun Samarqand viloyat koʻp tarmoqli qizlar salomatlik markazi boʻlimi xodimi phd O.M.Barnoqulov, akademik litsey yoshlar bilan ishlash boʻyicha direktor oʻrinbosari F.Ibragimov, xotin-qizlar maslahatchisi Umida Mamatjonova, ona tili adabiyot fani oʻqituvchisi Goʻzal Vafoqulova ishtirokida davra suhbat tashkil etildi.

Tadbir davomida oʻquvchilarga “Oilalarda sogʻlom turmushni shakllantirish, aholi va yoshlar oʻrtasida tibbiy madaniyatni oshirish” mavzusiga doir keng koʻlamli maʼlumotlar berib oʻtildi.

